

“Abdulla Oripov hayot yoli”

Matyakubova Zaynab Qurolboyevna

Xorazm viloyati Gurlan tumani

19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi


Annotatsiya: Abdulla Oripov o'zbek shoiri va jamoat arbobi. Abdulla Oripov ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin sahifalaridan birini nomoyon etadi. Uning she'rlarida insonning chuqur ruhiy dunyosi va xalq tarixi tahlil etiladi.

Kalit sozlar: she'riyat, adabiyot, lirik, xalq arbobi, hissiy-emotsional munosabat, madaniyat.

Аннотация: Абдулла Орипов – узбекский поэт и общественный деятель. Творчество Абдуллы Орипова раскрывает одну из ярких страниц современной узбекской литературы. В его стихах анализируется глубокий духовный мир человека и история народа.


Ключевые слова: поэзия, литература, лирика, общественный деятель, эмоционально-эмоциональное отношение, культура.

Abstract: Abdulla Oripov is an Uzbek poet and public figure. Abdulla Oripov's work reveals one of the bright pages of modern Uzbek literature. His poems analyze the deep spiritual world of man and the history of the nation.



Key words: poetry, literature, lyric, public figure, emotional-emotional attitude, culture.

Islom Karimovning ta'kidlashicha, Abdulla Oripov she'riyatining bugungi ma'naviyat va ma'rifat taraqqiyoti bosqichi muhim ahamiyatga egadir. 2007-yil 12-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida O'zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish agentligining Bosh direktori Abdulloh Oripov Jahon madaniyatining xazinasiga ijodiy hissa qo'shganligi uchun yuqori darajadagi "WIPO Creativity Award" oltin medaliga sazovor bo'ldi. Mustaqillik o'zbek xalqiga o'zligini anglash va anglatish, tarixi, madaniyati, xalqona urf-odatlar va qadriyatlarini tiklash, milliy o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etish uchun beqiyos imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratdi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "...jamiyatning ma'naviy asoslarini yanada rivojlantirishda oilaning ahamiyatini yuksaltirish, har bir oilaning moddiy farovonligini oshirish muammolarini hal etishda davlat va jamiyat tomonidan e'tibor va g'amxo'rlik ko'chaytirilishi zarurligiga alohida e'tibor qaratildi. Adabiyot har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolarini ko'tarib chiqishi va ularga javob izlashiga ko'ra tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning ijtimoiy-ma'rifiy xususiyati, ayniqsa, xalqning milliy ruhini ifodalab berishda ko'rinadi. Tabiiyki, bu jarayonda xalqona poetik tafakkur tarzi ijodkorning adabiy shaxsiyati darajasini namoyon qiladi. Chinakam iste'dod egasi, xalq dilining ulkan tarjimoni Abdulla Oripov ijodida xalqona poetik tafakkur tarzi yetakchilik qiladi. Abdulla Oripov chinakam xalqning ehtiromi va e'tirofiga sazovor bo'lgan shoirdir. Uning xalq ardog'iga, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lishining o'ziyoq ijodkorning she'r va dostonlari xalq ruhi va qalbining ifodasiga aylanganidan darak beradi. "Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo'lsa, bir umr




hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir". Zero, Abdulla Oripov butun hayoti davomida "o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib" yashab, ijod qilayotgan shoirdir. Chunki bu shoir uchun xalq mavhum tushuncha emas, u aniq mazmunga ega. Shoirning "Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'rida aytilganidek, "Xalqim, tarix hukmi seni agarda Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi, Qorliklarni makon etgan bo'lsayding, Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?" Mazkur fikrlarda shoir she'riyatining milliy ruhiyatini belgilab beruvchi pafos ufurib turadi. Abdulla Oripovning inson hayotini, uning orzu-umidlarini yuksak badiiy saviyada ifodalagan, umuminsoniy mohiyatga ega bo'lgan xalqona poetik tafakkur belgilari yaqqol ko'rinib turgan asarlarini maxsus tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslik ilmining dolzarb masalalaridan biridir.

Bolalik, o'spirinlik chog'larida dunyo, tevarak atrof, tabiat kishi ko'ziga yanayam sirli-sinoatli tuyuladi, yam-yashil maysalaru lolazor qirlar zavqingni toshiradi, uzoqdagi viqorli tog'lar tinmay o'ziga chorlaydi, oydin yoz osmonida milt-milt etgan yulduzlar sirli jilmayib, xayolingni olib qochadi. Shunday lahzalarda "zavqini qitiqlagan shirin tuyg'ularini" ko'ksiga sig'dirolmagan o'n yetti yoshli o'smir hayratu hayajonini she'riy misralarda izhor qilishga jazm etadi, tezroq voyaga yetib yurtga munosib farzand bo'lishni, yulduzlardek porlashni orzu qiladi:

Ipak iz qoldirib uchar quvnoqlar.

Bir-birin quvlashib, chaqishar chaqin.

Osmon go'zallarini kumush yotoqlar



Qo'yniga chorlaydi, subhidam yaqin.


Deyman: osmonlarning hiloli bo'lsam,

Hulkar va Zuhrosi bo'lgim keladi.

Shu go'zal o'lkamda kamolga to'lsam,


Porloq yulduzlarday kulgim keladi.

Garchi yosh shoirning keyinroq yozilgan "Miltiraydi mitti yulduz" deb nomlangan she'rida o'z to'dasidan ajralib qolgan, shamdek titrab, ko'k gumbazining bir chetida "tanholikdan yosh to'kayotgan" osmon jismi haqida so'z borsa ham oltmishinchi yillar o'rtalaridan boshlab she'r olamida chaqnagan "mitti yulduz" to'g'risida gapira boshladilar. Yillar o'tdi, u o'zbek she'riyatini yangi bosqichga olib chiqqan yorqin yulduzga aylandi, shu'lasi yiroq-yiroqlarga taralib, butun turkiy adabiyotning, Sharqning yirik siymolari qatoridan joy oldi, she'rlari ko'plab G'arb tillariga tarjima qilindi. Nafosat olamida "Abdulla Oripov she'riyati" degan tushuncha mustahkam qaror topdi. Insoniyat badiiy tafakkuri mo'jizalaridan biri bo'lgan she'riyat insonning olam va borliqqa hissiy-emotsional munosabati hosilasidir. Insoniyatning quvvai hofizasi zo'r shoirlari yaratgan she'riy durdonalar barcha xalqlarning, barcha avlodlarning ma'naviy mulki bo'lib qoladi. Vaqt o'tadi, davrlar yangilanadi, adabiyotga yangi avlodlar kirib keladi va bu ma'naviy boylikka o'z hissasini qo'shishga chog'lanadilar. Abdulla Oripov adabiyotda biryoqlamalik, ritorika, deklarativlik, bayonchilik, "baxtli zamonaga" hamdu sano o'qish avj olgan, adabiyotning ijtimoiy-estetik qimmati puturdan keta boshlagan bir davrda she'riyat ostonasiga qadam qo'ydi. Har bir shoir singari u ham havaskorlik, izlanish bosqichini bosib o'tdi. Yulduzlar, tog'lar, kapalak haqida yozdi. Ulardan she'r



izladi. Biroq u o'qish-o'rganish bosqichini tez bosib o'tdi, she'riyatning missiyasini, inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini juda erta angladi. 1962 yilda matbuot yuzini ko'rgan "Kuz xayollari", 1964 yilda "Sharq yulduzi" jurnali sahifalarida e'lon qilingan "Men nechun sevaman O'zbekistonni", "Miltiraydi mitti yulduz", "Burgut" kabi she'rlar o'z ovozi va uslubiga ega bo'lgan shoir shakllanayotganligidan darak berdi. Shoirning sobiq ittifoqda stalincha zo'ravonlik sharpalari hali butkul daf bo'lmagan, mustabid tuzum hukmronlik qilishda davom etayotgan, adabiyot esa "sots. realizm" iskanjasi ostida ezilish holatida bo'lgan bir sharoitda isyonkor ruh bilan sug'orilgan tug'yonli, lirik-falsafiy, teran mushohadali, hayotni o'zicha ko'rgan chinakam milliy va xalqchil she'rlari og'ir sukunatni titratib yuborgan momaqaldiroq yanglig' yangradi. "Albomga", "Yuzma-yuz", "Temir odam", "Ayol", "Munojotni tinglab", "O'zbekistonda kuz", "Tilla baliqcha", "Dorboz", "Otello", "Uyqu" kabi she'rlardagi o'ziga xos mushohada, dadillik, haqiqatni anglashga intilish, xalqning dardini aytish, eng muhimi erkni ulug'lash, istiqloлга talpinish tug'ma iste'dod sohibining barchani mahliyo qilib qo'ygan, qizg'in bahs-munozaralarga mavzu bo'lgan muhim fazilatlar edi. Uning she'rlaridan bahramand bo'lish "she'riyat bayrami"ga (Qaysin Quliev iborasi) aylanib ketardi.

Hayotning ichiga chuqur kirib borish, hayot haqiqatini tasvirlashdagi qat'iyat va izchillik, chuqur obrazlilik, fikr va tuyg'uning ajoyib bir tarzda omuxtaligi, shiddatkor ruh, ichki drammatizm, poetik tafakkurning teranligi, Sharq va G'arb she'riyatining eng yaxshi an'analari uyg'unlashganligi yosh shoir ijodiy evolyutsiyasini ta'minlagan omillar bo'ldi.



Biroq yulduzday chaqnagan bu iste'dod uchqunlari vaqtincha emasmikan degan hadiklar ham yo'q emas edi:

Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada:


Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad.

Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada

Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.

Shukrlar bo'lsinkim, umumxalq ehtiromi, adabiy davralarning e'tirofi yosh shoirni havolantirib yubormadi. "Mitti yulduz"ning nurlari tobora avjlanib, ajib shu'lalar tarata boshladi. Tez orada "Sarob", "Bahor", "Avlodlarga maktub", "Sovg'a", "Minarai kalon tepasidagi laylak", "Biznikilar", "Jannat" singari har biri adabiyotimizda voqea bo'lgan she'rlar yaratildi.

Shoir yetmishinchi yillarda ham hayot qatlamlariga chuqur kirib borib, inson qalbi kechinmalarining nozik tebranishlarini chizishda davom etdi. "Ona sayyora", "Genetika", "Bir tanishim haqida ballada", "Qo'riqxon", "Malomat toshlari", "Uchinchi odam" kabi she'rlarida butun bir romanga, qissaga arzirli muammolarni o'rtaga tashladi va ularni lirik qahramonning asab tolalaridek tarang tortilan kechinmalari orqali ifodalashga muvaffaq bo'ldi. Shoirning keyingi davr ijodida ham ma'naviyatni yuksaltirishga, ruhiyatni poklashga xizmat qiluvchi sarbon tuyg'ular yanada tiniqlashdi, falsafiy ruhi kuchaydi, ko'lami kengaydi. She'riyatda lirik qahramon doimo asar markazida bo'ladi. She'riyat ixlosmandlari muallifning lirik "meni" orqali shoirning poetik olamidan voqif bo'lish, uning kechinmalari girdobiga kirish va tuyg'ularini his qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Lirik



qahramon deyilganda kimni - shoirning o'zinimi yoki biror boshqa shaxsni nazarda tutamizmi degan savol tug'ilishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'atlar: Filol.fan.nomzodi...dis. - Toshkent : 1997. -B. 142 .
2. Ashurova G. Abdulla Oripov she'riyatida an'ana va badiiy mahorat (obraz, g'oya va tasvir). Filol.fanlari nomzodi.....diss. avtoref.- Toshkent : 2008, -B. 26.
3. Aristotel. Poetika. Toshkent: "Adabiyot va san'at nashriyoti", 1980. -B. 149.
4. Begimqulov D. SHE'riyatimiz yulduzi. // Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik, 1 jild. -Toshkent : 2000.-B.432.
5. Vohidov R, Hoshimova M. SHE'riyat - shoir yuragi. Toshkent:"Fan", 1987. -B. 68.
6. Jabborov I. Abdulla Oripov she'riyatida tarixiy shaxs talqini. -Toshkent: Fan, 2008. -B. 100.
7. Yo'ldoshev B. Qashqadaryo badiiyati. Toshkent: "Sharq" NMK, 1998.-B. 464.
8. Norboyev B. Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari. Filol. fan. d-ri..dis. avtoref. Toshkent: 1996.-B. 54.